

Gulbahor NABIYEVA,
 ADCHTI, *nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi*
 E-mail: Guli1119@gmail.com
 Tel: (90)1444048

ADCHTI, PhD, dots. O.A'zamov taqrizi asosida

G.G'ULOMNING "SHUM BOLA" ASARI TARJIMASIDAGI TAFOVUTLAR XUSUSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy tarjimaning murakkabligi va qiyinlik darajasi va unga kora badiiy ijod xususida fikr yuritiladi. Badiiy asarlar tarjimasida uchun til bilishning o'zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik istedodi va badiiyat ilmidan xabardor bolish kerakligi ta'kidlanadi. Realistik tarjima, tarjimon asl nusxasi, sa'nat asari sifatidagi shakli va mazmun birligini haqida mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: Murakkablik, ijodkorlik, ish sifati, til, original versiya

REGARDING THE DIFFERENCES IN THE TRANSLATION OF G. GHULAM'S WORK "SHUM BOLA"

Annotation

This article reflects on the complexity and difficulty level of artistic translation and artistic creativity. It is emphasized that knowing the language is not enough for the translation of works of art, for this it is necessary to be aware of the talent of creativity and the science of art. Realist translation, the translator's original version, the quality of the work of art, and the unity of the content are considered.

Key words: Complexity, creativity, quality of the work, the language, original version

ПО ПОВОДУ РАЗНОГЛАСИЙ В ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ Г. ГУЛАМА "ШУМ БОЛА"

Аннотация

В данной статье размышляется о сложности и уровне сложности художественного перевода и художественного творчества. Подчеркивается, что для перевода произведений искусства недостаточно знать язык, для этого необходимо осознавать талант творчества и науку об искусстве. Учитываются реалистический перевод, оригинальная версия переводчика, качество художественного произведения и единство содержания.

Ключевые слова: Сложность, креативность, качество работы, язык, оригинальная версия.

Kirish. Badiiy tarjima o'z murakkabligi va qiyinlik darajasiga ko'ra badiiy ijod bilan deyarli bir mavqeda turadi desa ham bo'ladi. Sababi muallifning iste'dodi va mahorati mevasi bo'lgan asarni umuman boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qilib qayta yaratish kerak bo'ladi. Badiiy asarlar tarjimasida uchun til bilishning o'zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik istedodi va badiiyat ilmidan xabardor bo'lishi talab qilinadi. Realistik tarjima talablariga ko'ra, tarjimon asl nusxasini sa'nat asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratish, milliy va individual xususiyatlarni saqlashi lozim. Har bir badiiy asar bir millat vakil tarafidan yoziladi va unda, albatta, milliylik bo'ladi. Shunga ko'ra, tarjimashunoslikda milliy kolorit degan atama mavjud. Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlari o'z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda, shuningdek, mahalliy kolorit tushuncha ham bor. Mahalliy kolorit deb biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush tarzi, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirishga aytiladi. Shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamlar realiyalar, boshqacha aytganda milliy xos so'zlar deyiladi. Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida yozuvchi qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatlarini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda qilib beradi, turli uchlubiy vazifalarni, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy ochib berishga yordab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqorida tarjimon olim M.Qambarovning keltirilgan fikrlariga qo'shilgan holda, biz ham tarjima qilish jaryonida, xususan, ikki bir biriga qaradosh bo'lmagan tillarning milliy madaniy etiketlarini hisobga olgan holda, hozirgi kunda tilshunoslar tadqiqotlarini aynan lingvokulturologik jihatdan tarjima qilish va ularning o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish yo'llarini yechimini izlash va undan go'zal asar tarjimasini yaratish tarjimon tilshunoslarning muhim masalasi bo'lib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bir tildan boshqa tilga o'girilayotgan asarning tarjimasida, tarjimon dastavval, o'sha mamlakat milliy qadriyatlarini o'rganib chiqmoqligi darkor bo'lib qoldi. Albatta, bu yerda tarjimonga millatning milliy koloritini bilishni taqozo etadi. Milliy kolorit tarjimaning asarda tasvirlangan xalqning milliy o'ziga xosligini aks ettirish kerak-mi? - asarni boshqa milliy zaminga ko'chirish kerakmi? Degan ikki bir-biriga zid printsiplarni belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Tarjimada til almashinadi, lekin milliylik qoladi.

Tahlil va natijalar. Endi esa quyidagi matnga e'tiborni qaratsak:

Gleich nach dem dritten Gebiet, das genau vor Sonnenuntergang verrichtet wird, schauten wir kurz zu Hause vorbei, schlürften eilig eine Mehlsuppe, einen Eintopf oder verschlangen einen Brei aus Bohnen mit Kürbis, Mungo Bohnensuppe, Reis oder eine Nudelsuppe. Und dann stürmten wir gesättigt wieder nach draußen.

Nomozgar, namozshom o'rtasi uyga qaytib, atalami, umochmi moshqovoqmi, moshxo'rdami, ugra oshmi, apir—shapir ichib yana ko'chaga chopar edik. Nomozgar -[boshqa, boshqa paytdagi namoz; asr namozi] [1] 1. kun botish oldidan o'qiladigan namoz, besh vaqt nomoning uchinchi.

esk. kun botish oldidagi payt. Shu kuni namozgargacha urush bo'lib, Asqar ponsad og'zidan o'q yeb o'libdi. A.Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari".

Namozshom- [shom namozi va u o'qiladigan payt] [2] 1. Kun botib, qorong'ilik tusha boshlagan payt, qosh qoraya boshlagan vaqt; oqshom. Tilla boy oldiga qo'yilgan ovqatlarni xo'p yeb olgandan keyin, xuftonni namozdayoq chala-chulpa o'qib olib, darrov uxlab qolar edi. P.Tursin, "O'qituvchi".

2. Kun botgandan biroz keyin o'qiladigan namoz, besh vaqt namozning to'rtinchisi. So'zni kelgan yerida to'xtatib, Hoji bobo iymon bo'lgan holda namozshom o'qishga qo'zg'aldilar. G'ofur G'ulom, "Shum bola". Dili (yoki ko'ngli) namozshom

bo'lmoq. Dili qorong'i bo'lmoq, qattiq xafa bo'lmoq, ranjimoq. -Xunuk voqeadan dilim nomozshom bo'lib, xayol surib kelayotgan edim, o'rinboynig so'zlariga uncha e'tibor bermabman, - dedi Kamol. H.Nazir, "Ko'kterak shabadas".

vor Sonnenuntergang - Zeitraum etwa zwischen Sonnenuntergang und Sonnenaufgang, zwischen Einbruch der Dunkelheit und Beginn der Morgendämmerung

Tarjimasi: Tahminan quyosh botish va quyosh chiqishi o'rtasidagi vaqt oralig'i
eine Mehlsuppe - aus Mehl hergestellte Suppe [3]

Tarjimasi: Un mahsulotidan tayyorlangan sho'rva
einen Brei aus Bohnen mit Kürbis- einen [dicken, steifen] Gericht aus Bohnen mit Kürbis

Tarjimasi: Loviya bilan qovoqdan tayyorlangan quyuyq taom

Bohnensuppe - [dicke] Suppe aus Bohnen [4]

Tarjimasi: Loviyadan qilingan sho'rva(quyuq)

eine Nudelsuppe - japanisches Gericht aus einer heißen Brühe und einer speziellen Nudelart; japanische Nudelsuppe[5]

Tarjimasi: issiq sho'rvadan va maxsus lapsha turidan tayyorlangan yapon taomi, yaponcha lapshali taom

O'zbek milliy madaniyatiga xos namozshom - quyosh botishdan odin degan ma'noni bildirib, nomozshom- ma'nosiga to'g'ri kelgan, biroq namozgar-jumlasiga tarjima berilmagan.

Eine Mehlsuppe - atala, einen Eintopf-umoch, [6] Nudelsuppe- ugra osh, Mungo Bohnensuppe- moshxo'rda, Bohnen mit Kürbis- moshqovoq keltirilgan jummalarni tarjimon hammasini ekvivalentini topib ishlata olgan. Unser Wohnviertel grenzte an einer Seite an die Mahalla Tikonlimozor und an der anderen an die Mahalla Kurgantagi. Wir trafen uns meist in den abgelegenen sackgasse, die sich links und rechts von den Hauptstraße befanden und dort vergnügten wir uns, jungen und Mädchen zusammen bis trieft in die Nacht. Es gab verschiedene Spiele zb; Ringkampf, Es ab verschiedene Spiele, Z.B. Ringkampf oder «Botmon-Botmom, Dabei standen die Gegner mit den Rücken zueinander, hakten die Arme ein und hoben den Partner abwechselnd auf den Rücken. Sehr beliebt war auch ein Spiel, das «Die weiße Pappel, die grüne Pappel» hieß. Die Jungen teilten sich in zwei Gruppen auf. Jede von ihnen wählte einen Häuptling, und man nahm einen aus der Gruppe als Rätselfigur. Die anderen sollten die Person erraten. Diejenigen, die die Denksportaufgabe richtig lösten, stiegen auf den Rücken der Verlierer und wurden im Trab bis zu einem bestimmten Platz getragen. Was gab es noch? Ach ja, «Mindi-Mindi» beispielsweise, oder «Der Dieb ist da», «Das Köpfchen meines Vögelchens» oder Versteckspiel. Das waren alles Abendspiele. Es gab freilich auch anderen zeitvertrieb, den man bei Tageslicht spielen könnte: «Altschik», Ballspiel, "Sumtshallak" nackte Rennwette, Bogenschießen oder dass Pferderäuberspiel. Kurzum wir hatten genügend Möglichkeiten, uns Tag und Nacht zu unterhalten.

Bular hammasi oqshom o'yinlari, kunduzgi o'yinlar boshqacha; har -xil oshiq o'yini, yong'oq o'yini, to'p o'yini, zumchillak, yov-yov, o'q kamalak otish, yalang'och poyga, ot o'g'risi va xakazo. O'talarimizning ko'pchiligi mayda kosiblar, qorovul xodimgar, meshqob, otboqar, hammol, so'fi, folbin arqon tovlaydigan, nag'ora- childirma qoplaydigan, to'qimdo'z, chegachi va xakazo bo'lganliklari uchun ularning qo'lidan hunarlarini olib yoki ularning yoniga ko'makchi bo'lib tushish bizga to'g'ri kelmas edi. Ertadan kech ko'cha-changitib, hammaning joniga tegib, kampirlardan qarq'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiraklab yuradigan o'yin to'da, bekorchi bolalarmiz.

Die Väter der meisten in unserem Spielkreis waren arme kleine Handwerker, die Kesuselpauken oder Tamburine mit Leder überspannten oder Tischler, Wächter, Diener, Wasserträger, Pferdeknechte, Lastenträger, Sufis, Wahrsager, oder Seiler.

Yuqorida keltirilgan jumlalarga e'tiborni qaratsak, yuqorida o'zbek milliy o'yinlarni tarjimasiga nemis tilidagi tarjimalarga muqobillarni tanlaganini tahlil qilish hammaga qiziq, albatta.

Oshiq o'yini- Altschik, yong'oq o'yini- , to'p o'yini- Ballspiel, zumchillak-"Sumtshallak",yov-yov, o'q kamalak otish- Bogenschießen oder dass Pferderäuberspiel, yalang'och poyga- nackte Rennwette, ot o'g'risi- Pferderäuberspiel.

Keltirilgan o'zbek milliy o'yinlarini tarjimlariga e'tibor bersak, tarjimon milliy o'yinlarni tarjimasiga asl tarjima bera olgan-u, biroq yong'oq o'yini, yov-yov o'yinlarini muqobillarini topolmagan.

Kosiblar- kleine Handwerker, qorovul- Wächter, xodimgar- Diener, meshqob- Wasserträger, otboqar- Pferdeknechte, xammol- Lastenträger, so'fi- Sufis, folbin- Wahrsager, arqon tovlaydigan- Seiler, nag'ora- childirma qoplaydigan- die Kesuselpauken oder Tamburine mit Leder überspannten oder Tischler, chegachi -die Kesuselpauken (singing chinni, sapol idishlarni chegalovchi, yamoq soluvchi)- berilgan so'zlarining tarjimasini tarjimon barcha muqobillarini topib, to'g'ri ishlata olgan, bundan ko'rinib turibdi-ki, bu kabi kasb-hunarlar nemis halqlarida ham borligidan dalolat berib turibdi.

Xulosa va takliflar. Tarjimaning lingvokulturologik tadqiqi ikki madaniyat tilini bir biriga qiyoslab, ularni o'hshash va noo'hshash jihatlarini ko'rsatishdan iborat. Aqliy idrok asosida o'xshatish va farqlay olish qobiliyati yotadi. Lisoniy birlik sifatida turg'un o'xshatishlar millatning dunyoqarashini, idrok intizomini aks ettiruvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н харфи. -Б.15
2. F.Фуллом. Шум бола.Янги аср авлоди нашриёти. 2011.-Б.73
3. G. Gulom.Der Schelm. Akademnashr (July 6, 2020).2020.-S. 101
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.15 б
5. Duden | beten | Rechtschreibung, Bedeutung, Definition, Herkunft
6. 6.V.Xazratqulov M.uslub va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar// Tarjima san'ati (Maqollar to'plami).4-kitob.-Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.265-272-betlar
7. Xrolenko A.T. Osnovi lingvokulturologii. – M., 2006. – 184 s.
8. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniyat kodlari tushunchasi va talqini // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – № 3. – B. 15–19.
9. F.Саломов. Таржима назариясига кириш. –Ташкент.1978.